

**SHARTNOMA № 102**  
**(Oziq ovqat maxsulotlari sotib olish)**

9 koloq 2022 yil

Toshloq tumani

«Lazzat totli ne'mat» MChJ rahbari N.Abdullayev birinchi tomondan o'z nizomi asosida ish yurituvchi, bundan buyon «Sotuvchi» deb yuritiladi, o'z nizomi asosida ish yurituvchi, ikkinchi tomondan **Toshloq tumani Maktabgacha ta'lim bo'limi** nomidan rahbari G.Abdusamadova bundan buyon «Xaridor» deb yuritiladi va quyidagilar xaqida ushbu shartnoma tuzildi.

**I. SHARTNOMA PREDMETI**

1.1. «Sotuvchi» o'ziga tegishli bo'lgan mahsulotlarni sotish, «Xaridor» esa qabul qilib olingan mahsulot yoki tovar (ko'rsatilgan xizmat) uchun to'lovlarni belgilangan tartibda amalga oshirish majburiyatini oladilar.

**II. SHARTNOMA NARXI**

2.1.

№	Tovarning nomi	O'lchov birligi	Mikdori	Narxi	Summasi
1	Guruch (zaxira)	kg	7320	9690	70930800
	<b>JAMI:</b>	X	X	X	<b>70 930 800</b>

2.2 Tovar(xizmat)larning shartnomaviy umumiy baxosi **70 930 800** (Yetmish million to'qqiz yuzi o'ttiz ming sakkiz yuz) so'm.

**III. HISOB-KITOB QILISH TARTIBI**

3.1. «Xaridor» tovar uchun oldindan, yetkazib berilayotgan tovar, mahsulot (ko'rsatilgan xizmat)ning 30 foizi miqdorida avans tariqasida shartnoma to'liq kuchga kirgan kundan boshlab 25 bank ish kuni mobaynida va qolgan 70% miqdorini schet fakturaga asosan maxsulot yetkazib berilgandan so'ng pul mablagini o'tkazish yo'li bilan to'lovni amalga oshiradi.

**IV. TOVAR YETKAZIB BERISH MUDDATI.**

4.1. «Sotuvchi» mazkur shartnoma qonuniy kuchga kirgandan so'ng tovarni 10 (un) kun muddat ichida «Xaridor»ga yetkazib berishi shart.

**V. TOVAR SIFATI**

5.1. Yetkazib berilayotgan tovar yoki mahsulotlarning sifati belgilangan standartlarga (muvofiqlik sertifikat), ishlab chiqarish me'yoriy hujjatlar va «Xaridor»ning talablariga mos kelishi shart.

**VI. XO'JALIK SHARTNOMASI TARAFLARINING HUQUQLARI**

6. Xo'jalik shartnomasi taraflari belgilangan tartibda quyidagi huquqlarga ega:  
xo'jalik shartnomalarini tuzish, bajarish, o'zgartirish va bekor qilish munosabati bilan zarur bo'lgan ma'lumotnomalar va boshqa hujjatlarni so'rash va olish;

xo'jalik shartnomalarini tuzish, bajarish, o'zgartirish va bekor qilish bilan bog'liq masalalar yuzasidan ekspertlarning yozma xulosalarini so'rash va olish, mutaxassislar bilan maslahatlashish;

davlat organlari va boshqa organlarga, mansabdor shaxslarga iltimosnomalar bilan murojaat etish hamda shikoyatlar berish va ulardan asoslantirilgan yozma javoblar olish;

boshqa tarafning iqtisodiy ahvoli, nufuzi va ishchanlik jihatlari xususidagi ma'lumotlarni to'plash;

xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning qonunda nazarda tutilgan vositalari va usullarini qo'llash.

Xo'jalik shartnomasining taraflari qonun hujjatlarida va shartnomada nazarda tutilgan o'zga huquqlarga ham ega bo'lishlari mumkin.

## **VII. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI**

### **7.1. «Sotuvchi» majburiyatlari:**

Shartnomada ko'rsatilgan talablarga rioya qilgan xolda o'z vaqtida «Xaridor»ga tovarni yetkazib berish;

Shartnomaning shartlari «Xaridor» tomonidan buzilganda berilgan mahsulotni qaytarib olib qo'yish xuquqiga ega;

- Tegishli darajada sifatli mahsulot yuborilmaganligi to'grisida bildirishnoma olgandan so'ng, sifatli bo'lmagan mahsulotlarni 10 kun ichida almashtirib berish yoki ushbu shartnomaning 2-bandiga asosan sifatli bo'lmagan mahsulotlarni baxosini qaytarib berish.

- «Sotuvchi» yetkazib bergan mahsulotlarini hisob-varaqlarda to'lik va aniq nomini, mahsulot navini, kategoriyasini va boshqa ko'rsatkichlarini ko'rsatishi shart. Shuningdek, hisob-varaqlarni belgilangan tartibda raqamlab, to'lik rekvizitlarni rasmiylashtirish lozim.

### **7.2. «Xaridor»ning majburiyatlari:**

- «Xaridor» shartnomada belgilangan talablarga rioya qilgan xolda to'lovlarni amalga oshirish, tovarni dalolatnoma tuzib ushbu shartnomada va qonun hujjatlarida belgilangan butlash tartibiga, soniga, sifatiga qarab o'z vaqtida mahsulotni qabul qilib olishi lozim.

- Tegishli darajada sifatli bo'lmagan mahsulotlarni kelib tushganligi aniqlangandan so'ng, ushbu to'grisida tegishli dalolatnoma tuzilib bu xaqida 3 kun ichida «Sotuvchi»ni ogoxlantirish.

- To'liq rasmiylashtirilmagan hamda mahsulotning sifati, navi va kategoriyalari ko'rsatilmagan hisob-varaqlar bo'yicha to'lovlar amalga oshirilishiga yo'l qo'yilmaydi.

## **VIII. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI**

8.1. Ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni ijro etilmasligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi uchun tomonlar O'zbekiston Respublikasi Qonunchiligida shuningdek ushbu shartnomada nazarda tutilgan talablar asosida javobgardirlar.

8.2. «Sotuvchi» tomonidan «Xaridor»ga tovar va mahsulotlarni belgilangan muddatlarda yetkazib bermaganligi uchun kechiktirilgan xar bir kun uchun yetkazib berilmagan mahsulot qiymatining 0,5 % miqdorida «Xaridor»ga penya to'laydi, lekin penya miqdori kechiktirilgan mahsulot qiymatining 50 % dan oshmasligi kerak.

8.3. Shartnoma talablarida ko'rsatilgan belgilangan sifatlardagi hamda butlashdagi mahsulotlarni yetkazib berilmagan taqdirda, aybdor taraf ushbu mahsulot qiymatining 20% miqdorida jarima to'lashiga sabab bo'ladi.

8.4. «Xaridor» tomonidan olingan tovar yoki mahsulot uchun to'lovlar o'z vaqtida amalga oshirilmagan taqdirda kechiktirilgan xar bir kun uchun kechiktirilgan summaning 0,4% miqdorida «Sotuvchi»ga penya to'laydi,

bunda penyaning umumiy miqdori kechiktirilgan summaning 50% dan ortiq bo'lmasligi lozim.

8.5. Nazorat organlari tomonidan o'tkazilgan tekshirish davomida yetkazib berilgan tovar yoki mahsulotlar narxi yuqori deb topilgan taqdirda o'rtadagi farq yetkazib beruvchi tomonidan qoplanadi.

## **IX . FORS-MAJOR XOLATLARI**

9.1. Xech bir taraf ikkinchi taraf oldida o'ziga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra va yengib bo'lmas kuch mavjud bo'lgan taqdirda ushbu shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlari bo'yicha javobgar emas. Favqulotdagi xolatlariga: suv toshqini, yong'in, yer qimirlashi va boshqa tabiiy ofatlar, shuningdek xarbiy xarakterli, davlat organlarining aktlari yoki xarakatlari va taraflar nazorat qila olmaydigan boshqa xar qanday xolatlar tegishlidir.

9.2. Taraflar ushbu shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarni bajarmaslik sabablari to'grisida albatta ikkinchi tarafni ogoxlantirishi shart.

9.3. Agar bartaraf qilib bo'lmaydigan kuch 1 oy davomida uzluksiz ravishda davom etsa, taraflar bir-birini yozma ravishda o'gohlantirib, shartnomaning ijrosini bekor qilish yoki qo'shimcha ijro muddatlarini belgilashlari mumkin.


#### **X. SHARTNOMANI O'ZGARTIRISH, BEKOR QILISH VA NIZOLARNI XAL ETISH TARTIBI**


10.1. Ushbu shartnomani bajarish, o'zgartirish va uni bekor qilishda paydo bo'ladigan nizolar eng avvalo taraflarning kelishuvi bilan xal qilinadi. O'zaro kelishilmagan taqdirda mavjud nizo iqtisodiy sudi orqali O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari asosida xal qilinadi.

10.2. SHartnoma taraflarning uzaro kelishuviga asosan yoki O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga hamda amaldagi qonun hujjatlari normalariga binoan keltirilgan zararni to'lagan xolda muddatidan ilgari bekor qilish mumkin.

10.3. Ushbu shartnoma 2022 yil «31\_»dekabrgacha 2(ikki) nusxada tuzildi. SHartnoma taraflar tomonidan imzolanib, g'aznachilik bo'linmasida belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng qonuniy kuchga kiradi.

#### **XI. TOMONLARNING MANZILLARI VA REKVIZITLARI:**

<p><b>“Сотувчи”</b> <b>“LAZZAT TO'TLI NE'MATI” MЧЖ</b> (мол етказиб берувчининг номи) <b>Манзил: Farg'ona viloyati Marg'ilon shaxri, Sadoqat ko'cha 29-uy</b> <b>X/p:20208000805315514001</b> <b>ATB Mikrokreditbank Farg'ona sh. filiali MFO 00496 INN: 307333861 OKONX:</b></p> <p><b>Raxbar:</b>  <b>N.Abdullayev</b> (imzo)</p>	<p><b>«XARIDOR»</b> <b><u>Toshloq tumani Maktabgacha ta'lim bo'limi</u></b> Manzil: Toshloq tumani, A.Navoiy ko'chasi 30-uy SH/X: 100022860302277091100251001 INN: 305153709 OKONX: 92400 Toshloq tuman g'aznachilik bo'linmasi MFO: 00014 X/R: 23402000300100001010 Bank nomi: Markaziy bank Toshkent sh XKKM STIRi: <u>201122919</u></p> <p>Rahbar: _____ <b>G.Abdusamadova</b></p>
--	---

	<p>Hujjat <u>elektron raqamli imzo</u> orqali imzolangan. Elektron raqamli imzoning haqiqiyligini tekshirish uchun <b>QR Code</b> ni skanerlang.</p>	
	Imzolovchi F.I.SH.	GULIRUXSOR ABDUSAMADOVA NABIYEVNA
	Imzolangan sana	09.11.2022 10:25
	Hujjat kodi	<b>YV7653277702</b>
	Hulosa kodi	<b>BB1688036354</b>
	Shartnoma raqami	<b>408-11-160-MT/2022</b>